

## VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR

2024- yilning yanvar-sentabrida tashqi savdo aylanmasi 947,5 mln. AQSH dollari tashkil etdi, shundan 402,2 mln. AQSH dollarini eksport operatsiyalari, 545,3 mln. AQSH dollarini import operatsiyalari hissasiga to'g'ri keldi.

Tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosini -143,2 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.

### Yanvar-sentabr oylarida MDH va boshqa davlatlar kesimida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSH dollari)

	yanvar-sentabr		2023- yilning yanvar-sentabriga nisbatan foiz hisobida
	2023- y.	2024- y.	

Tashqi savdo aylanmasi	463 630,1	947 462,6	2,0 m.
------------------------	-----------	-----------	--------

shu jumladan:

MDH davlatlari	130 553,6	121 864,1	93,3
----------------	-----------	-----------	------

boshqa davlatlar 333 076,5 825 598,6 2,5 m.

Eksport	299 202,2	402 132,6	134,4
---------	-----------	-----------	-------

shu jumladan:

MDH davlatlari	86 132,9	92 337,3	107,2
----------------	----------	----------	-------

boshqa davlatlar 213 069,3 309 795,3 145,4


Import	164 427,9	545 330,0	3,3 m.
--------	-----------	-----------	--------

shu jumladan:

MDH davlatlari	44 420,7	29 526,8	66,5
----------------	----------	----------	------

boshqa davlatlar 120 007,2 515 803,3 4,3 m.

**Yanvar-sentabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida  
MDH va boshqa davlatlarning ulushi**  
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




**Yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyati  
eksport-importi tarkibi**

	<i>Eksport va import operatsiyalari hajmi va ulushi</i>				<i>2023- yil yanvar- sentabrga nisbatan foiz hisobida</i>
	<i>2023- yil</i>		<i>2024- yil</i>		
	<i>mln. AQSH doll.</i>	<i>jamidagi ulushi, %</i>	<i>mln. AQSH doll.</i>	<i>jamidagi ulushi, %</i>	
<b>Eksport tarkibi</b>	<b>299,2</b>	<b>100</b>	<b>402,1</b>	<b>100,0</b>	<b>134,4</b>
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	46,2	15,4	48,5	12,1	105,0
Ichimlik va tamaki	0,6	0,2	0,6	0,2	109,1
Yoqilg'idan tashqari oziq- ovqat hom-ashyo	0,1	0,0	0,0	0,0	14,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga uxshash materiallar	49,2	16,4	152,8	38,0	310,8
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,0	0,0	2,0	0,5	164,1 m.

*davomi*


Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	1,5	0,5	0,9	0,2	60,2
Sanoat tovarlari	189,6	63,4	189,3	47,1	99,9
Mashinalar va transport asbob uskunalari	5,7	1,9	2,0	0,5	34,5
Turli xil tayyor buyumlar	0,3	0,1	0,0	0,0	0,0
Boshqalar	3,3	1,1	2,5	0,6	75,2
Xizmatlar	2,8	0,9	3,5	0,9	126,1
<b>Import tarkibi</b>	<b>164,4</b>	<b>100,0</b>	<b>545,3</b>	<b>100,0</b>	<b>331,7</b>
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	11,5	7,0	33,7	6,2	292,5
Yoqilg‘idan tashqari nooziq-ovqat hom-ashyo	0,0	0,0	0,2	0,0	619,6
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga uxshash materiallar	4,9	3,0	4,8	0,9	97,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	9,7	5,9	5,6	1,0	58,3
Sanoat tovarlari	0,9	0,5	0,1	0,0	12,4
Mashinalar va transport asbob uskunalari	22,1	13,5	57,2	10,5	258,5
Turli xil tayyor buyumlar	13,2	8,0	14,7	2,7	111,3
Boshqalar	94,7	57,6	0,1	77,9	448,7

## Tashqi savdo aylanmasining qit'alar bo'yicha tarkibi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



### QASHQADARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASINING YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2024- yil yanvar-sentabr oylari, mln. AQSH dollari)




Qashqadaryo viloyati, jahonning 80 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (25,5 %), AQSH (11,8 %), Turkiyada (21,3 %), Rossiyada (7,6 %), Niderlandiyada (3,8 %), BAAda (3,3 %), Pokistonda (3,1%), Germaniyada (3,6%), Qozog'istonda (2,3 %), Yaponiyada (1,9%) qayd etilgan.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.


Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalaridagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSAda Qozog'iston ,Tojikiston, Qirg'iziston davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, AQSH, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Niderlandiya va BAA davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.




Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 16 ta yirik hamkor davlatlar orasidan 11 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, AQSH (102,6 mln. AQSH dollari), Rossiya (40,8 mln. AQSH dollari, Birlashgan Arab Amirligi (28,7 mln. AQSH dollari), Qozog'iston ( 9,1 mln. AQSH dollari), Misr (13,8 mln. AQSH dollari), Pokiston (15,5 mln. AQSH dollari), Portugaliya (6,2 mln. AQSH dollari), Polsha (8,6 mln. AQSH dollari) va Tojikiston (11,0 mln. AQSH dollari), Eron Islom Respublikasi (6,5 mln. AQSH dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 7 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

### **Tovar va xizmatlarning eksport tarkibi,** *jamiga nisbatan foizda*




## Tovar va xizmatlarning import tarkibi,

(jamiga nisbatan foizda)



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida jami 107,3 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlari 44070,0 ming AQSH dollariga eksport qilindi (2023- yilning mos davriga nisbatan 28,9 % ga) ko'paydi.

Shuningdek, 2,7 ming tonna dukkakli sabzavotlar 12738,2 ming AQSH dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 79,2 % ga kamaygan.



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (19,7 %), Afg‘oniston (17,0 %) , Qozog‘iston (27,4 %) va Rossiya Federatsiyasi (32,2 %), davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan to‘plangan tajriba bilan ham bog‘liqligi bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan hukumat qishloq xo‘jaligi xom-ashyosini sanoat asosida qayta ishlashga va yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratmoqda.